

Koreya Respublikasiga borayotgan yo'lovchilar diqqatiga

2022 1 August

Joriy yilning 26-iyulidan boshlab Koreya Respublikasiga borayotgan yo'lovchilar majburiy ravishda ushbu mamlakatga kirishlari bilan bir kun ichida PZR-test topshirishlari lozim. Eslatib o'tish kerakki, oldin test topshirish muddati 3 kun etib belgilangan edi.

Koreya Respublikasi fuqarolari, shuningdek, mamlakat hududida uzoq muddat asosida istiqomat qiluvchi xorijiy shaxslar mahalliy ma'muriyatlar huzuridagi tibbiyot muassasalarida bepul test topshirishlari mumkin.

Mamlakatga qisqa muddatga tashrif buyuruvchi yo'lovchilar aeroportning maxsus markazlarida to'lov asosida PZR-testini topshirishlari mumkin.